

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi


Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2005-yil 9 - 15 - may N:19 (66508)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va Axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

9-May Xotira va qadrlash kuni



QADRLASH KUNI

Bugun to'qqizinchi may,
Xotira va qadrlash kuni.
Mard, jasur bobolarni,
Eslab, xotirlash kuni.
Dushmanga buzdirmadi,
Vatanning qo'rg'onini.
Mardonavor kurashdi,
Ayamay hech jonini.
Bundan oltmish yil avval,
Shu kuni zafar quchdi.
Yuzlari yorug' bo'lib,
Yurtiga qushdek uchdi.
Ularning jasoratini,
Xotirlab, yod etamiz.
Puxta o'qib-o'rganib,
Ruhlarin shod etamiz.
Faxrlanamiz bizlar,
Mard bobolarimiz bor.
Yurt tinchligin saqlashda,
Ular ruhi madadkor.

Nigora OLLOYOROVA,
Qashqadaryo viloyati,
Qamashi tumanidagi
14 - maktab o'quvchisi.

Bobom Abduljabborali Haydaraliyev bugun qutlug' 75 yoshga to'ladilar. Men ular uchun kutilmagan sovg'a tayyorlayapman. Dadamning aytishlaricha, onalari Manzura Yo'lchiyeva Xudoyberdiyevning ukalari, ya'ni tog'alari Yo'lchiyev G'ulom Xudoyberdiyevich taxminan 1917-19 yillarda tug'ilganlar. 1940 yillarda «O'zbek otliq askar» diviziyasiga (eski Oktabr, hozirgi Shayxontohur harbiy

BOBOMGA SOVG'A IZLAB...

qismida) boshchilik qilganlar. Shu tuman orqali 1941 yilda diviziya qo'mondoni bo'lib Kavkazga jo'nab ketgan ekanlar. U yerdan maktub yo'llab, otliq askar diviziyasini kengaytirib, urushga kirmoqchi ekanliklarini va vaqtincha xat yoza olmasliklarini aytibdilar. Shu tariqa ulardan dom-darak bo'lmagan. Onalari Manzura Yo'lchiyeva olamdan o'tib ketganlar. Otalari Haydarali Abdullayev ham urushga ketganlar. Bobom o'sha paytda chamasi 6-7 yoshda bo'lganlari uchun tog'alarini izlay olmaganlar. Har gal shu voqeani so'zlaganlarida bobom ko'z yoshlarini tiya olmaydilar.

Menimcha, bobomga eng yaxshi sovg'a - tog'alarining daragini topish bo'lsa kerak. Bobomning tog'asi bo'lmish Yo'lchiyev G'ulom Xudoyberdiyevichni balki sizlarning bobolaringiz tanishar yoki u haqida eshitgan bo'lishlari mumkin. Agar shunday bo'lsa sizdan iltimos, aziz tengdoshlarim, u kishining oilalari, turar joylari haqida bizga xabar bering.

Nargiza TO'LAGANOVA,
Akmal Ikromov tumanidagi 193-maktab o'quvchisi.

Xotira shunday aziz, muqaddas bir tuyg'uki, u orqali inson umri davomida bosib o'tgan hayot yo'lini, g'am-alamlarini, quvonchli onlarini yodida saqlaydi. O'zi uchun aziz, ardoqli bo'lgan insonlarni yod etadi. Bu tuyg'u insonlarni bir-birlariga nisbatan yanada mehrliroq, e'tiborliroq-bo'lishga chorlaydi.

Ayni kunlarda men ham marhum ustozim Anorqul Ochilovni yodga olmoqchiman.

Ustozim Anorqul aka 1953-yil 23-martda Xovos tumanining Xo'jamishkent qishlog'ida tavallud topganlar. Ularning bolaligi shu qishloqning chang ko'chalarida o'tgan. O'rta maktabni ham, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika institutining kimyo-biologiya fakultetini ham a'lo baholarga tamomlagan ustozimiz Boyovut tumanidagi 40-maktabda o'z ish faoliyatlarini boshlaganlar. O'ta talabchanligi, o'z ustida ko'p ishlashlari bilan boshqa o'qituvchilardan ajralib turardilar. Keyinchalik bizning tuman markazidagi Abu Ali ibn Sino nomli

maktab-internatimizga kimyo o'qituvchisi bo'lib ishga keldilar va umrlarining oxirigacha shu maktabda o'z kasblarini ardoqlab mehnat qildilar. Maktabimiz direktori shunday eslaydilar:

-Bu inson maktabda bolalar bilan ishlash uchun yaratilgan edi. Ustoz haqida xotiralarimiz juda ko'p. Ayniqsa, ulardan biri hecham yodimdan

eritishga qodir ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim... Ustoz ana shunday mehridaryo insonlardan edilar. «Shogirdlarim bilim borasida mendan o'tmasalar, hisobmas»,-derdilar doim. Ustozning 25 nafar o'quvchilari viloyat olimpiadasi g'oliblari, 10 nafari respublika olimpiadalarida

qatnashishga m u s h a r r a f bo'lishgan. Shu xizmatlari uchun ustoz 1985-yil «Katta o'qituvchi»,

DOIMO QALBLARDASIZ

chiqmaydi: Behzod Jo'lbekov bilan matematika fanidan Ruminiyada o'tkazilgan jahon olimpiadasida qatnashib, faxrli o'rin olib qaytdik. Ertasiga maktabga kirib kelishimni bilaman, karnay-surnay ovozidan quloqlarim bitib qoldi. Eshik oldida esa ustoz meni quchoq ochib qarshi oldilar va qulog'imga: «Bu onlarni juda ko'p orzu qilardingiz, Karimjon»,-dedilar. Shunda ko'zlarimda beixtiyor yosh qalqdi. Inson mehrining toshlarni ham

1995-yil «Xalq ta'limi a'lochisi», 1999-yil Prezidentimizning Farmoniga asosan «Respublikada xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi» unvonlari bilan taqdirlandilar. Ular hozir oramizda bo'lganlarida yutuqlarni qo'lga kiritayotgan o'quvchilarimiz soni ortgandan ortaverardi. Ularning porloq xotirasi minnatdor shogirdlari qalbida mangu yashaydi.

Feruza TO'RAQULOVA,

Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi ibn Sino nomli maktab-internatning 11-sinf o'quvchisi.



Buvajonim Karim Mahkamov — urush qahramoni, ko'kraklarini to'ldirib turgan orden va medallarini yig'salar hovuehlariga sig'masdi. Ular urushning burilish pallasi bo'lgan dahshatli Stalingrad mudofaasida qatnashganlar. Buvim esa front ortida fidokorona mehnat qilib, kishilarni g'alabaga ruhlantirganlar, frontga oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-yarog' yetkazish ishlarida faol qatnashganlar. Shu mehnatlari evaziga buvim ham qator-qator orden va medallar bilan mukofotlanganlar.

«O'G'LIMNING NASIBASI»

-Yer-u ko'kni o'q yomg'iri tutgan o'sha mash'um kunlarni sira unutmayman, - deya hikoya qilardilar buvim.-Har daqiqada hayot bilan vidolashish hech gapmas. Har gal jangga kirganimda onam, ukalarim, singillarim siymosi birma-bir ko'z o'ngimdan o'tardi. Shularning tinchligi, osoyishtaligi uchun jang qilishim kerak, deya «Yovga o'lim! Olg'a, faqat olg'a!» deb chorlaganicha jangga otlanardik. Urush hozir siz ko'rayotgan kinolardagidan yuz karra azobliroq, mash'umroq, dahshatliroq edi.

Stalingrad mudofaasidan so'ng Xarkov shahrini ozod qildik. So'ng, Ukrainaning boshqa shahar va qishloqlaridan nemis gazandalarini quva boshladik. Har bir ko'cha, har bir uy uchun qaqshatqich janglar borardi. Jon olib, jon berardik. Okoplarda necha kunlab och-nahor qolib ketganmiz. Qahraton sovuqda suv qidirib, muz ko'chirib, qo'llarimiz tosh qotgan jasadlarga tegardi. Nikolayevka

qishlog'i uchun bo'lgan jangda oyog'imdan qattiq yaralanib, yurolmay qoldim. Meni dala gospitaliga olib borishdi va zudlik bilan evakuatsiya qilishdi. Don daryosida kemada suzib borardik. Paluba usti yurolmaydigan yaradorlarga to'lgan. Shu payt osmonda nemis «kalxatlari» paydo bo'ldi. Shu damdagi ahvolimizni bir



ko'rsangiz edi. Barvasta vazmin kema kapitani sarosimaga tushmadi, kemani yashil butazorlar tomonga haydashni buyurdi. Hayriyat, dushman bizni payqamay, bir-ikki sho'ng'ib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Keyin yo'limiz poyezdda davom etdi. O'sha «kalxat»lar ko'kda

Hamisha uyg'oq xotira

Aziz bolajonlar! Ustozlaringiz, otanalarigiz sizlarni nechog'li yaxshi ko'rishlari, avaylab-asrashlari, boshingizda parvona bo'lishlarini juda yaxshi bilasiz-a?

Dunyoda yana shunday bir toifa insonlar borki, ular ham sizni xuddi otanangiz va ustozlaringizdek yaxshi ko'rishadi. Komil inson bo'lib yetishishingiz, ma'naviy dunyoingiz yanada boyishi uchun tinmay o'ylanadilar, ijod qiladilar. Bular sizning sevimli shoir va adiblarigizdir.

Kichkintoylarga qiziq-qiziq, samimiy, ravon, yillar o'tsa-da, o'z qadr-qimmatini yo'qotmaydigan ko'plab ajoyib she'rlar yozgan shoir Hamza Imonberdiyev ham ko'ngli pok, iste'dodli qalamkash, bolajon insonlardan biri edi. Hamza akangiz sizning sevimli nashringiz «Tong yulduzi»da uzoq yillar davomida mehnat qilgan. Gazetaning adabiyot bo'limini boshqarib, gazetxonlar hukmiga eng sara ijod namunalari mavola etish payida bo'lgan. Shuningdek, «Xandobus» deb nomlangan dam olish sahifasini tashkil qilib, uni qiziqarli she'r va hikoyalar, xanda va loflar bilan boyitgan. O'zi ham o'tgan asrning 70-yillaridan she'rlar mashq qila boshlagan.

Kechagidek yodimda, 1978-yillar edi. Gazeta qoshida «Yosh qalamkashlar» to'garagi ish boshladi. Men u kezlar maktabda o'qir, mitti-mitti she'rlar mashq qilib yurardim. Ana shu havas meni tahririyat sari yetakladi. Hamza aka

o'sha kezlari ancha yosh, ko'rkam, qopqora sochlari quyuq, jingalak, ko'zlaridan doimo kulgu, mehr arimay turuvchi yigitcha edi. Yanglishmasam, o'sha paytda shoir ko'zoynak ham taqmasdi. Xullas, u meni juda iliq qarshi oldi. She'rlarimni erinmay o'qib ko'rib, gazeta sahifalarida e'lon qildi.

Ha, Hamza Imonberdiyev hamisha yosh iste'dodlarga yordam berib

SEVIMILI SHOIR EDI

kelardi. Keyinchalik «Cho'lpon» nashriyatida ishlab yurgan kezlari ham yurtimizning turli go'shalarida yashab ijod qiluvchi iste'dodli o'quvchilarning asarlarini to'plab, kitob holida chop ettirgandi.

Men shoir bilan ustoz-shogird tutinib, etagini mahkam tutdim. Qiziqarli, qisqa va lo'nda yozishni Hamza akadan o'rgandim. Chunki bunday she'rlar ular ongiga tez muhrlanar ekan. Shoirning o'zi ham aytganlariga amal qilib, ko'plab ertaklar, voqeaband, quvnoq she'rlar yozib qoldirdi. «Quvnoqlar quvonchi», «Oydagi tomosha», «G'aroyib pufak», «Shokoladxo'rlar», «Lofchilar-aldoqchilar», «G'aroyibkent hangomalari», «Bir kunlik tomosha» (vafotidan keyin) kabi kitoblari orqali har bir bola qalbiga yo'l topdi.

1997-yilning 12-avgusti barcha bolalar adabiyoti ixlosmandlari uchun qayg'uli kun bo'ldi. Shu kuni shoir yo'l halokati hodisasiga uchrab, 43-yoshida hayotdan bevaqt ko'z yumdi. Biz bolalar

yana paydo bo'lib, biz ketayotgan eshelonimizni mo'ljalga ola boshladi. Yura oladigan jon borki, panaga qochdi. Qaytib kelganimizda qocholmay qolgan jangchilarni dushman bombalari tilka-pora qilib yuborgan, vagonlardan laxta-laxta qon oqardi... Qozon gospitalida sakkiz oy yotib, ona shahrim Toshkentga yo'l oldim.

BUVIM, BUVAM - QAHRAMON

Har kuni bir kosa ovqatni «o'g'limning nasibasi» deb olib qo'yadigan Buvinisa onajonimning bag'ri to'ldi...

Ha, qirq yil qirg'in bo'lsa, ajali yetgan o'ladi, deganlari rost ekan.

URUSHNING NOMI O'CHSIN!

Frontlarda qaqshatqich janglar borayotgan bir pallada front ortidagi insonlarga ham oson bo'lmagan.

Dalalarda tun-u kun mehnat qilib g'alaba uchun, front uchun ishlashgan. Bir burda nonni ham, kiyimni ham jangchilarga ilinib.

Buvijonim Naziraxon Jalilova xalqning ishonchli vakili bo'lib, kishilarda g'alabaga ishonch tuyg'ularini uyg'otishga harakat qilardilar. Har bir ketmon zarbini dushmanga yo'naltirishga da'vat etardilar.

-O'sha kuni maydonga tumonat odam yig'ildi, - deya hikoya qiladilar buvim. Qanotiga «O'zbekiston», «Kim Pen Xva», «Xayitvoy Abdurahmonov» deb yozilgan

yuzlab samolyotlar frontga uchish uchun shay turardi. Bu samolyotlar xalqimizning eng sahovatli kishilar mablag'i hisobiga qurilgandi. Katta miting bo'ldi. Urush davrida respublikamizdan millionlab tonna g'alla, kartoshka, sabzavot, quruq mevalar, kiyim-kechaklar, etik va botinkalar orilib, frontdagi jangchilarga yuborildi. Biz esa g'alabaga oz bo'lsa-da, ulush

qo'shganimizdan baxtiyor edik...

Janggoh xotiralarini tinglar ekanman, ularga bo'lgan mehrim yanada jo'shib ketdi. Biz, o'ttizdan ziyod nabiralari qahramon Buvajonim va Buvijonim bilan faxrlanamiz, ularning jasoratlariga munosib bo'lib, o'qishda va ishda hamisha namuna bo'lishga astoydil harakat qilyapmiz.

Nusratbek AZIMOV.


YAXSHILARGA YONDOSHI

*Yaxshi insonlarning yuragi pokdir,
Ularda bo'ladi vafu, sadoqat.
Yomonlarning bag'ri misoli toshdir,
Ularning qalbida xasad, adovat.
Yomon inson bo'lib tug'ilmas hech kim,
Yomonga ergashib uningdek bo'lar.
Yaxshilarga yondoshib yashasak agar,
Dunyo ezgulikka, shodlikka to'lar.*

Shahnoza JO'RAYEVA,

*Muborak shahridagi Said Jo'rayev nomli
1 - maktabning 8 - sinf o'quvchisi.*

she'riyatining yorqin bir yulduzidan ajrab qoldik. Shoimning Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Tohir Malik kabi ustozlari, Zoir Ziyov, Orif To'xtash, Dilshod Rajab, Kavsar Turdiyeva va men kabi shogirdlari ustozimizning oramizda yo'qligiga halihanz ishongimiz kelmaydi. Nazarimizda u tirikdek, hozir eshik qoqib, o'sha yoniq ko'zlaridan mehr nurlarini sochib, o'sha oppoq, chiroyli



Hamza IMONBERDIYEV

KIM KIMNI TERGAYDI?

*-To'g'ri o'tir, qiyshayma,
Ukajonim tergayman.
-Bo'ldi endi ishshayma,
Tergab tinchlik bermayman.*

*-Kurash til, urfing uchun,
Buni birov bermaydi.
Shunday deb bobom har kun,
Dadamlarni tergaydi.*

*-Buva,-dedim bir kuni,
Bormi sizni tergar zot?
-Ko'hna qabrstonidagi
Ajodlar tergar bot-bot.*

*Deya bobom uh tortdi,
Ko'z yumib o'yga botdi.*

DARSDA

*-Egam, qara, pishillab
Uxlayapti-ya O'lmas!
-Shu gapni aytish uchun
Uyg'otdingmi, a, galvars?!*

MASLAHAT

*-Qancha «s» yoziladi
«Hassa» so'zida ajab?
Bittami, ikkitami,
Bilolmay hayron Rajab.
-Uchta «s» yozing, aka,
Aql o'rgatar Jo'ra.
-Ortib qolgani ma'qul,
Yetmay qolganidan ko'ra.*

YAXSHILAR RO'YXATIDA BIRINCHI INSON

Ardoqli ustozim, elshunos olim Bilol aka Aminovning ajoyib bir odatlari bor: biror tadbirgami, uchrashuvigami borsalar, meni albatta o'zlarini bilan birga olib boradilar. Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi «Tasviriy oyna» ijodiy uyushmasining yillik anjumanida qatnashdik. Ustozimning ana shu ijodiy uyushma tashkilotchi a'zolaridan biri ekanliklarini ham o'sha yerda bildim. Barcha viloyatlardan juda ko'plab mehmonlar qatnashgan mazkur anjumanni O'zbekiston xalq qahramoni, sevimli shoirimiz Abdulla Oripov boshqardilar va nutqlarini quyidagi so'zlar bilan boshladilar:

-Qadrli anjuman qatnashchilari! Bugun oramizda «Tasviriy oyna» ijodiy uyushmasida uzoq yillardan buyon mehnat qilib ketayotgan ajoyib bir inson bor. U kishining nomlari Bilol aka Aminovdir. Demla bugun

o'zlarining tabarruk 70 yoshlarini qarshi olyaptilar,-deyishi bilan zalda gulduros qarsaklar ko'tarildi. Qarsaklar ovozi biroz tingach, Abdulla aka so'zlarini davom ettirdilar. -

Agar gallaktikadan o'zga sayyoraliklar kelib yerda

kimlar yashashini bilib borishsa, shunday degan bo'lishardi: «Biz borgan joyning nomi «er» deb atalar ekan. U yerda 4 ta turga bo'linuvchi insonlar yashasharkan. Ular, yaxshi, yomon, boy va kambag'allar ekan. Yerda yaxshilar kam, yomonlar ko'p ekan. Agar yomonlar ro'yxatini tuzadigan siyoh ham yetmaydi.

bo'lsak,

Shuning uchun yaxshilar ro'yxatini tuzdik», deya ro'yxatni Bilol aka Aminovdan boshlagan bo'lardilar. Chunki Bilol aka xalqimizga ko'p yillardan buyon beminnat, ta'masiz xizmat qilib kelyaptilar. U kishi bizga har tomonlama



o'rnak bo'lsalar arziydi,-deya ustozimga buxorocha zar chopon kiydirdilar.

So'z navbati ustozimga berildi:

«Samolardan tushgan mungli sadoman,
O'z-o'zimni bilolmay adoman.

O'z uyim, o'lan to'shagim, to'rt devor ichra,

Bir kuni shoh bo'lsam, bir kun gadoman», deya mana bugun men shohman, dedilar zar choponga ishora qilib. -70 yoshga to'lsalar ham haliyam ijodiy ish bilan band ekanlar-da, deyayotgandirsiz. Buning sababi bor: mening ichimda lokomotiv bor. U menga, izlan, o'rgan, harakat qil, deya da'vat etaveradi, deya izoh berdilar. Keyin Abdulla aka bilan inson umri haqida yana allaqanday payrovlar qilishib, hammani kuldirdilar...

Shunday ajoyib uchrashuvga olib kelganlari, buyuk zamondoshimiz Abdulla Oripov suhbatidan bahramand qilganlari uchun ustozimdan behad minnatdor bo'ldim. Ustozlar ijodi va hayot yo'li biz uchun o'rnak, degan naqlning to'g'riligiga yana bir bor amin bo'ldim.

*Faridun KUSHNAZAROV,
Alisher Navoiy nomidagi Respublika nafis
san'at litseyining 8 - «V» sinf o'quvchisi,
Nargiza AKBAR qizi.*

... Urush tugadi. Fashistlarning qabih hujjatlari orasidan bir tarixiy surat topildi. Unda biri-biridan shirin, xushchaqchaq o'g'il-qizlar o'z muallimi bilan o'tirishardi. O'shanda ular birinchi sinfda o'qishardi. Bilimga juda tashna edi bu polaponlar! Orzulari-chi? Bir olam edi! O'quv yili tugashi arafasida sevimli o'qituvchilari bilan esdalikka suratga tushishdi. Bir umrga eslash uchun. Yoshlari ulg'ayganda ko'rib, o'zlarini ham, boshqalarni ham hayratlantirishmoqchi edilar. Haqiqatan ham bu tarixiy surat eng noyob esdalik bo'lib qoldi. Bolalar esa fashizmning qurboni bo'lishdi. Hikoyamiz ular haqida, ularning ayanchli taqdiri haqida...

Yoz oylarida Chexoslovakiyaning Liditsa qishlog'ida bir kun mehmon bo'lib kelgan kishi bu yerdan ketgisi kelmasdi. Ko'm-ko'k o'tloqlar, bog'rog'lar, zangori osmon va toza havu kishiga huzur bag'ishlardi. Bu go'zallik nemis-fashistlarga yoqmad. Uni toptab, vayron qilgan himoyasiz qishloqdan qo'shiq aytib chiqib ketishdi. O'shanda odamlar qonxo'r bosqinchilarning yovuz niyatiga tushunishmadi. Dushmanning

kirdikorlari shu bilan tugadi, deb o'ylashgandi. Bolalar ham burgut tamg'ali nemis soldatlarining bosh kiyimlarini, g'oz yurishlarini rosa tomdan tomosha qilishgandi o'shanda. Hali dushman nimaligini, uning mash'um kirdikorlarini bilishmasdi ular!

Dushman yana qaytdi. Shiraga

LIDITSA

o'rgangan pashshaday yopirilib kelishdi. 1942 yilning 9 iyun kuni gruppenfyurer Frenk politsiya direktori Grest Bemga telefon qilib, Liditsa qishlog'i haqida shunday buyruq berdi: «Hamma erkaklar otib tashlansin. Ayollar konsentratsion lagerlarga jo'natilsin. Bolalar tezlik bilan Germaniyadagi eseschilarning oilalariga yuborilsin. Agar bu qo'l kelmasa, tarbiyaning boshqa usullari qo'llansin. Qishloq esa yer bilan yakson qilinsin!»

Fashist gazandalari kallakesar boshlig'ining buyrug'ini yashin tezligida ado etishdi. Ular norasida go'daklarni aldashedi. Bolalarga: «Sizlarni poyezdda sayr qildiramiz. Shaharlarni, yodgorliklarni, o'rmonlarni tomosha qilasisiz. Bunday imkoniyat sizlarga hech qachon nasib etmaydi...», deyishdi.

Qalbi pok qishloq bolalari bunga ishonishdi. Dushman hiylasini rost deb tushunishdi. «Bizlarni o'ynatgani olib ketishayapti», deb rosa quvonishdi ham. Lekin fashistlar odam qiyofasini yo'qotgan vahshiylar edi.

Bolalarni Kladio qishlog'iga olib kelishdi. Ular orasida olti bola hali ikki yoshga, eng kichigi esa hali bir yoshga ham to'lmagan go'dak edi. Bir zumdayoq sayrga chiqqan bolalarning chehrasini qo'rquv bosdi. Ayriliq yoshlari selday oqdi...

Gestapo esa bolalarning rangiga, ko'ziga va sochiga, ko'rinishiga qarab guruhlarga ajratdi. Hatto ularga yangidan ism qo'yishdi. Ammo uydagidek o'ynashga o'yinchoq, shirin taom berishmadi. Sayrga ham olib chiqishmadi. Ularni tikanli simlar ortiga, quyoshsiz dunyoga qamab qo'yishdi.

BOLALARI

(Voqeyiy hikoya)

Ular to'qson bola edi. Jajji-jajji o'g'il-qizlar qafasga tushgan qushlarday talpinishdi, yugurishdi, chopishdi tim qorong'u xonalar ichida! Uydan chiqishsa ham tikanli sim to'rdan nariga o'ta olishmadi. Ular hech nimaga tushunishmadi.

Ota-onasiz, ayriliq dardi bolalarni gangitib qo'ydi. Oq-qoraning farqiga bormaydigan bu go'dak tutqunlar «N I M A UCHUN?» deya savol berishdi. Savol esa javobsiz qoldi. Murg'ak bolalar esa ona qishloq-Liditsani, mehribon otalarni qo'msashardi. Nachora! Ulardan sakson ikkitasiga o'zi tug'ilgan qishloqni ko'rish nasib etmadi.

Liditsalik quvnoq bolalardan faqat singan bir yarimta o'yinchoq, to'p va otalarniga, qarindoshlariga yozgan maktublari qoldi, xolos. Ular o'qishni, hayotni, turli-tuman o'yinchoqlarni, to'yib ovqat yeyishni juda-juda yaxshi ko'rishardi. Bolalar sog'inch bilan xatlar bitishdi. Bu xatlar o'zlariday tikanli sim to'ning ichida qoldi. Ularni urushdan so'ng haloskor jangchilar o'qishdi. Mana ular: «Aziz do'stlar! Xatimizning birinchi

Jabbor RAZZOQOV

satriyoq bizlar, Mila, Marush, Edenak sizlarga Polshadan salom yo'llaymiz.

Bizga yeyishga biror narsa, yana iloji bo'lsa, ikkita qoshiq, ikkita chashka va bitta pichoq yuborsangiz.

Salom va ehtirom bilan:

Mila, Marush, Edenak».

«Sevimli xolajon! Biz Eva, Ema, Vande Pelexovskiylar Polshadan salom yo'llaymiz. Bizda ustimizdagi kiyimdan boshqa hech nima yo'q. Sizdan iltimos, bizga biror narsa, eski tuflimi, yuborsangiz. Yana mehribonlik qilmoqchi bo'lsangiz, bizga bir bo'lak non va pirojniy yuboring. Eva bu yerda betob bo'lib qoldi. Sog'aygan bo'lsa ham hali bardam emas. Sizlar hammangiz sog'lom va birga yashayapsizlarmi? Ahvollaringiz qanday?

Yana bir salom va iltimos, iloji bo'lsa biror yegulik narsani tezroq yuborsangiz, chunki biz bu yerda qancha bo'lishimizni bilmaymiz. Salom bilan: Eva Kafkova, Ema va Vande».

Maktublar... Bolalarni intizorlik bilan kuttirgan maktublar. Ular o'z egalariga yetib bordimi?

Yo'q, bormadi. Javobsiz qoldi. Bolalarning so'nggi najotlari unsiz qoldi.

Liditsa qishlog'i. Dushman vayron qilgan qishloq. Fashistlar endi hech qachon uning odamlari bo'lmaydi, nomi o'chadi

deyishgandi. Lekin Liditsa qayta tiklandi. Tinchlik timsoli bo'lib, bolalardan yodgorlik bo'lib... Avvalgisidan ham go'zal edi. Bolalari dunyoning turli burchaklaridagi tengdoshlariga butun dunyoda tinchlik, osoyishtalik bo'lishini istab, tinimsiz maktublar yo'llashdi. Bu xatlarning mazmuni bitta: «Hech qachon urush bo'lmasin. Liditsa fojiasi sira takrorlanmasin. Odamlar, bolalarni jallodlardan asrang!»

MOTAMSARO ONA

Olis tarix o'yilgan toshda,
Xayol surar mungli bir ona.
Mana necha asrlar osha,
O'tiradi yolg'iz, yagona.
«Jigarim» deb kutadi hamon,
Mungli boqqan ko'zlarida nam.
Kutadi, kelsin deb esonu omon,
Farzandin qaytmasligin bilsa ham.
Ey ona, olis o'tmishdan sizsiz,
Qalbga muhrlangan ayanchli nido.
Urushning eng so'nggi qurboni ham siz,
Farzand-chun qildingiz joningiz fido.
Mana, siz tilagan niyat ushaldi,
Ozodlik bayrog'i baland hilpirar.
Bizlar-chun jonini fido qilgan,
Dilbandingiz nomi toshda yaltirar.

Dilrabo DO'STQOBILOVA,

Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi

118 - maktabning 7 - sinf o'quvchisi.



**Bahor kelsa, gul bo'ladi butoqlar,
Bulbullardan egiladi bu choqlar...**

Taniqli kompozitor Muxtor Ashrafiy juda chiroyli musiqalar yaratgani bizga ma'lum. U «Sevgi tumori» baletini yaratganida, qarama-qarshiliklarga uchraydi. Martabali rahbarlar o'sha paytda M. Ashrafiyga musiqa o'g'risi

butun dunyoni larzaga sola boshladi. U «Ona» simfoniyasiga 1953 yilda o'zi rejissyorlik qilgan. Muxtor Ashrafiy M.Qoriyev, Komil Yashin, Muzaffarov, Ziyod Esenboyevlar bilan hamkorlikda ishlashgan. Uning shoh asarlaridan biri «Rustam va Suhrob» sharqona taronalarda o'zbek iymonini saqlab

«SEMURG'» MUALLIFI

tamg'asini bosishgan. Shunda u: «Mening musiqamni yillar o'tgach, odamlar baribir tushunishadi, -degan ekan. Shundan keyin Muxtor Ashrafiy Moskvada «Dilorom» operasini yaratadi. Bir paytlar juda mashhur film hisoblangan «Natashaxonim» badiiy filmiga musiqa yaratadi. Bu filmga mashur kishilardan Komil Yormatov, Latif Fayziyevlar rejissyorlik qilishgan. Ashrafiyning musiqalari urushdan keyin

qoladi. Ularning yutug'ini Boris Isakovich Zeydman va Mamajon Rahmonovlar yuqori baholashadi. Musiqamizning butun dunyoga yoyilishida o'zining kamtarona hissasini qo'shgan Muxtor Ashrafiy osmondagi chaqmoq kabi bir chaqna o'chdi. Lekin ularning yorqin xotiralari halihamon bizni qalbimizda saqlanib qolaveradi:

Hasan IBRAGIMOV, bastakor.

«ZAMONAMIZ NODIRABEGIMLARI»

Bizning Yunusobod tumanida joylashgan 273- maktabimizda turli qiziqarli tadbirlar muntazam ravishda o'tkazilib turiladi. Yaqinda ta'lim maskanimizning 7-sinf qizlari ishtirokida «Zamonamiz Nodirabegimlari» nomli bellashuv bo'lib o'tdi. Sahnada yetti nafar ishtirokchi yetti shart bo'yicha kuch sinashdilar. Hay'at a'zolari ishtirokchilarning bilimdonligi, zukkoligi, chaqqonligi, pazandalik va aktyorlik mahoratlarini yuqori baholadilar. Barcha shartlarni a'lo darajada uddalagan Ra'no Habibullayeva birinchi o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, Shahnoza Qodirova «Eng pazanda qiz», Feruza Qodirjonova «Eng chaqqon qiz», Sevara Yusupova «Eng bilimdon qiz», Feruza Mirahmedova «Eng go'zal qiz», Shohista Muhammedova «Eng shirinsuxan qiz», Nasiba Jo'rayeva «Eng lo'bar qiz» nomini olishdi. G'oliblarni «Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakati raisi Klara Ahmedova qizg'in qutlab, ularga sovg'alar topshirdi. Bellashuv yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Shirin ABDUAZIMOVA,

Yunusobod tumanidagi 273- maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi.



Rossiyaning sobiq Prezidenti Boris Yelsinning yuragini operatsiya qilish jarayonida bevosita rahbarlik qilgan amerikalik mashhur jarroh Diabeki yaqinda «AIF» haftanomasida e'lon qilingan suhbatida «Uzoq umr ko'rishning siri nimada?» degan savoliga: «Meva-cheva, sabzavotlarni ko'proq iste'mol qilib, yaxshi kitoblarni mutolaa qilish kerak», deb javob beradi.

O'zbekistonda meva-cheva-yu, sabzavotlardan serob narsa yo'q, ularni istagancha iste'mol qilish mumkin. Lekin yaxshi kitoblar xiyla tanqis. Keling, aziz gazetxon, gapni kitobdan boshlay qolaylik. Injili sharifda qayd etilishicha: «Men qiyomat kuni tuya ignaning teshigidan o'tib ketishiga ishonamanki, lekin boylarning jannatdan joy olishiga shubha qilaman», degan ekan Iso alayhissalom. Albatta bu gap aytilganiga 2005 yil bo'ldi.


Ehtimol, hazrati Iso yashagan paytlarda boylar muttaham, kazzob, ochko'z, benomus, xiyonatkor, fosiq bo'lgandir, ular kambag'allarga umuman qayishmagan bo'lsa, ne ajab? Balki ular mol-dunyosiga mahliyo bo'lib, oxiratni unutmagan? Xo'sh, Iso Nasaro zamonasidagi boylar hozir ham uchraydimi? Tuyalarchi? Chamamda, bo'sh paytlaringizda shu haqda o'ylab ko'rsangiz, do'stlaringiz bilan munozara qilsangiz bormi, kutilmagan hayot haqiqatiga duch kelib, ko'zingiz moshdek ochilishi turgan gap. To'g'ri boylar, mol-dunyo juda ko'p muammoni hal etish vositasi hisoblanadi, lekin boylar va pul bilan har qanday muammoni hal etib bo'lmaydi. Chunki, pul bilan iymoni butun zotlar aslo sotilmaydi - ular xuddi Rum qaysarlari kabi tik turib o'ladi, tiz cho'kib yashagandan ko'ra, tik turib o'lmoqni afzal ko'radilar.

XVIII asrda Fransiya ijtimoiy tafakkurida inqilob yasagan buyuk mutafakkir atqoli marifatparvar Jan Jak Russo yashab o'tgan. Uning «Iqrornoma»sida qayd

etilishicha, J.J. Russo umr bo'yi faqirona hayot kechiradi, boshi qarzdand chiqmaydi. Uni imperatorlar, qirollar, gersoglar ko'shklariga davrasiga taklif etadi. Ayni bo'yni yo'g'on kimsalar

«300 DOLLAR PULIM BO'LGANIDA»...

o'zlarining ajdod-avlodi to'g'risida doston yozdirmoqchi bo'ladi, adibga ijtimoiy



buyurtmalar beriladi. Hatto barcha qulayliklarga ega bo'lgan afsonaviy qal'a qo'rg'onlari bog'rog'lar Russo ixtiyoriga topshirib qo'yiladi, u yillar davomida go'yo Kommunizm yashaydi. Biroq, hech kim Russoni kambag'allik «botqog'i»dan qutqarib qololmaydi. O'zi ham kambag'allik jandasini yechishni istamaydi. Chunki u iste'dodini «o'tin yorishga» sarflamaydi, vijdoniga xilof ish qilishdan or qiladi.

«Iqrornoma»da Russo o'zining bolaligi haqida ham maroq bilan hikoya qilgan. Agar yozgi ta'vil paytida o'sha kitobning bolalik qismi bilan tanishsangiz, ishonamanki, yangi dunyo kashf etasiz.

Darvoqe, Russo «Iqrornoma»sining bevosita ta'siri ostida buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy ham «Iqrornoma» asarini yaratadi. Tolstoyning «Iqrornoma»si atqoli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Gap «Bo'yi baravar kitob yozgan» (Abdulla Qahhor iborasi) Lev Tolstoyga kelib taqalgan ekan, yana bir-ikki og'iz qo'shimcha qilamiz. Agar Tolstoyning insoniy mohiyatini bilishni istasangiz,

atoqli yozuvchimiz Asqad Muxtorning «Chinor» romanini o'qing, unda Lev Nikolayevichga bag'ishlangan maxsus bob bor. Ajabki, Sho'ro davrida yozilgan bu romanda har qanday

inqilobning (hozirgi zamon ta'бири bilan aytganda, terrorchilik harakati) yovuz qiyofasi fosh etib tashlagan.

Lev Tolstoyning kenja qizi Aleksandra (Rus inqilobining



ko'zguisi deb dohiy tomonidan ta'riflangan zotning farzandi) 1929-yilda Rossiyadan boshlab chiqib ketadi: Yevropada, so'ng Amerikada muhojirlikda yashaydi. U yaxshi yashash uchun xorijga jufakni rostlamaydi, balki vijdoniga xiyonat qilmaslik uchun otasining ruhini chirqiratmaslik uchun ixtiyoriy ravishda «vatangado» bo'ladi. U Amerikada «Qizi» va «Otam» nomli ikkita xotira kitobi yozgan (afsuski bu kitoblar hozircha o'zbekchaga o'g'irilmagan). Birinchi kitobida: «Agar 300 dollar pulim bo'lganida Italiyaga borib, og'ir kasal bo'lib yotgan opam bilan vidolashib ketardim», deb orzu qiladi. Nadomatlar bo'lsin, o'sha sabil 300 dollar topilmaydi, opa-singilning diydorlashuvi qiyomatga qoladi... Ana shu voqeaning o'zi ham

bu y u k **Yozgi ta'tilda kim qanday kitob o'qiydi?**

yozuvchining eng suyukli kenja qizi xorijga qorin dardida chiqib ketmaganini ko'rsatib turibdi. U insoniy qadrimmatini har qanday moddiy

ne'matdan ustun qo'yadi. Otasiga munosib farzand bo'lishni istagan o'quvchilar yozgi ta'vil paytida Aleksandra Tolstayaning «Doch» xotira kitobini mutolaa qilsa, shakshubhasiz uzoq umr ko'rajak.

OROMGOHIM, QAYDASAN?

Odatda yozgi ta'tilda oromgohga boriladi. Ammo hamma ham bunday imkoniyatga ega bo'lavermaydi: kimningdir oilaviy sharoiti to'g'ri kelmaydi, birovning moddiy imkoniyati cheklangan bo'ladi. Bunday chog'da nima qilmoq kerak?

Guliston Davlat universitetida Ravshanbek Mahmudov degan prorektor bor. U kishi o'quy dargohi miqyosida kam ta'minlangan talabalarni moddiy rag'batlantirish maqsadida pinhoni ravishda ijtimoiy tekshiruv o'tkazilishini taklif etadi. Ya'ni, har kuni «xufyalar» yordamida oshxonada ovqatlanadigan talabalarni bir oy ichida ro'yxatga oladilar. Keyin oshxonaga kirmaydigan talabalarning «delo»si ko'tarilib, ularning oilaviy sharoiti bilan tanishib ko'riladi. Ma'lum bo'ladiki, haqiqatan ham oilada moddiy jihatdan qisqinib-qimtinib hayot kechiradigan talabalar tushlik qilmasdan, ortiqcha pul sarflamasdan tahsil ko'rar va a'lo baholarga o'qishar ekan. Shundan keyin kam ta'minlangan talabalar uchun yotoqxonada tekinga ikki-uch mahal issiq ovqat tashkil etiladi. Ayrimlariga kiyim-bosh taqdim etiladi. Bular albatta universitet hisobidan amalga oshiriladi.

Demak, halol rahbarlar moddiy boylikni ham adolatlilik taqsimlanishini ta'minlashi mumkin, faqat istak-xohish bo'lsa bas.

Hurmatli Xalq ta'limi mutasaddilari! Sizlar oromgohlarga beriladigan yo'llanmalarini adolatlilik taqsimlash uchun nima qilmoqchisiz?

Ijtimoiy tenglikni saqlash uchun xuddi Guliston universiteti kabi eksperiment o'tkazish mumkinmi?

Mamlakatimizning kelajagi bo'lgan bolalar qalbida ezgulik niholchasini undirishga xizmat qiladigan har qanday tashabbusni «Tong yulduzi» gazetasi bajonidil ommalashtirishga ko'maklashadi. Biz bolajon yurtida yashaymiz, besh qo'l barobar emasligini ham bilamiz, - «o'tish davri»ning mushkulotlariga har kuni duch kelamiz. Keling, o'zimiz or-nomus uchun kurashaylik, kelajakni o'ylaylik. Mayli, oromgohda sog'liqliklarni tiklash shart bo'lgan bolalar ro'yxatini mahalliy sharoitni yaxshi biladigan, halol o'qituvchilar tuzib bersin. Oromgohga yo'llanma olib beradigan xamiyatli homiylarni esa maktab va xalq ta'limi bo'limi rahbarlari topsinlar, tashkiliy masalalarda «Tong yulduzi» yordam beradi...

Qissadan hissa shuki, nafaqat orom olishning, balki uzoq umr ko'rishning siri - semirishda, mushaklarni chiniqtirishda emas, oziq-ovqatdan tashqari yaxshi kitob mutolaa ham uzoq umr ko'rishning garovidir. Agar kimdir yozda oromgohga borish imkoniyatiga ega bo'lmasa, hech narsaga parvo qilmasdan, o'ziga ma'qul bo'ladigan yaxshi-yaxshi kitoblar mutolaa qilsin va mutolaadan olgan taassurotlarini «Tong yulduzi»ga yozib yuborsin. O'shanda kim ko'proq mazza qilgani ma'lum bo'ladi.

Oromgohim qaydasan?...

Ziyoda HASANOVA,

Xorazm viloyati, Bog'ot tumani, boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Olima NABIYEVA.

Aziz bolajonlar! Tahririyatimizga o'z maktabi, ustoz, sinfdoshlari haqida gapirib berishni istab keluvchi o'quvchilar soni juda ham ko'p. Ular o'zlari o'qiyotgan sinflari, dars vaqtidagi qiziqarli voqealar haqida shunchalar to'qinlanib hikoya qiladilarki, beixtiyor bizning ham yodimizga maktab davrlarimiz tushadi. Bu safar tahririyatga siz tengi o'quvchi emas, aksincha, maktabni bundan 50 yil avval bitirgan «o'quvchi» kelib, o'z maktabi, sinfdoshlari haqida bizga to'qinlanib so'zlab berdilar. Kim ekan u, deysizmi?

Qalbida bir olam quvonch, mamnuniyat bilan xonaga kirib kelgan ustoz - Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU dotsenti, tarix fanlari nomzodi Mirza Anvar KARIMOV edilar. Yakkasaroy tumanidagi 89-maktabni 1955-yil bitirgan bitiruvchilari safida ular ham bor ekanlar. Ana shu sobiq bitiruvchilar 50 yildan so'ng o'z qadrdon maktablarida uchrashishdi. Biz domla bilan maktabdagi uchrashuv, ustoz-shogird, ota-ona va farzand haqida suhbatlashdik. Suhbatimizga qiziquvchilar uni bemalol o'qishlari mumkin:

-Bir necha yillardan so'ng qadrdon maktabingiz sobiq o'quvchilarini qanday «kutib» oldi?

sinfdozlaringiz, qolaversa, ustozlardagi o'zgarishlarni qanday izohlaysiz?

-Yillar maktabimizga ham, sinfdoshlarimga ham

yaxshi taniy olmadik. Ularning ba'zilar oliygozlarni bitirib, hozirda fan doktori, fan nomzodi bo'lib yetishishgan, ba'zilar yetakchi rahbar, vazir o'rinbosari, katta tashkilotlarning rahbarlari bo'lib ish yuritmoqdalar.

-O'quvchilik vaqtingizda olgan bilimlaringiz, ustozlaringiz saboqlari hayotingizga qanchalik ta'sir o'tkaza oldi?

-Ustozlari-mizning bergan har bir saboqlari, o'g'itlari biz uchun bir umrga tatigulik xazina bo'ldi, desam yanglishmayman. Maktabda olgan bilim, maktab tarbiyasi, ustozlarning ibratli ishlari har bir o'quvchi qalbida o'chmas bir iz

Diydor

Hozirgi o'quvchilar uchun bunday muammolar yo'q. Ular bemalol kompyuter orqali butun dunyo yangiliklaridan bilan bir zumda

olmaydi.

-Bunday salbiy oqimlardan ota-onalar farzandlarini qanday qaytarib olishlari mumkin?

-Buning uchun ota-ona bolaga har narsadan kuchliroq ta'sir o'tkaza bilishi darkor. Birinchi navbatda ota-onalarning o'zi bilimdon va tarbiyali bo'lishi kerak. Bir alloma aytgan ekan: «100 ta o'qituvchidan qattiqqo'l va mehribon bitta ota



xabardor bo'lishmoqda.

-Bunga XXI asr - texnika asrining ham aloqasi bor. O'zingiz aytib o'tdingiz, avvallari yoshlar kutubxonadan ketolmas ekanlar.

onalar avvalo bilimdon, yaxshi tarbiya ko'rgan bo'lishlari shart. Agarda bizning qobil farzandlarimiz tarbiyali ota-

BIR UMRGA TATIGULIK XAZINA

-Ochig'i, sinfdoshlarim bilan bo'lgan uchrashuv biz uchun juda quvonarli kechaga aylandi. Ushbu uchrashuvda maktab o'quvchilari va

o'z ta'sirini o'tkazibdi. 1955-yilda bu maktab boshqa binoga ko'chgan. Hozir sinf xonalari zamonaviy ta'mirdan chiqqan, qo'shimcha yangi binolar

qoldirdi. Maktabda shakllangan fazilatlar yillar o'tishi bilan chuqurlashib, sayqallanib, to'lib boradi, aslo kamaymaydi. Hayotimda erishgan har bir yutug'im sababchisi maktabim va ustozlarim deb hisoblayman.

-Sizning davringizdagi o'quvchilar va hozirgi kun o'quvchilari orasidagi qanday farqli jihatlarni ko'rsata olasiz?

-Bizning vaqtda qizlar alohida, o'g'il bolalar alohida ta'lim olar edik. Maktab formasi bo'lmasdi, bitta kiyimni aka-ukalar ayab kiyardik. Yetishmovchilik sabab jildimizga bir dona kitob va daftar, bir burda non solib maktabga borib kelardik. Lekin shunga qaramay, sinfdoshlarimiz bilan kutubxonalardan uzoqqa ketolmas, kechalari lampa yorug'ida kitob mutolaa qilib charchamasdik. Chunki u vaqtlarda elektr chiroqlari hamma xonadonda ham bo'lmasdi.

Lekin hozirgi ayrim yoshlar kitobdan kompyuterni ustun qo'yishmoqda. Kitob bera oladigan narsani go'yo kompyuterdan olishayotganday. Ammo Navoiy, Abdulla Qodiriy asarlari beradigan tarbiyaviy ahamiyatni, his-tuyg'u, o'zbekona hayo-andishalarni kompyuterlar bera olarmikan?

-Yoshlarning kitob o'qimasligiga nafaqat kompyuter, balki ommaviy axborot vositalarining rang-barangligi, ularning benihoya ko'pligi, davlat tasarrufidagi, nodavlat ommaviy axborot vositalari, radio eshittirishlari ularning tarbiyasiga katta ta'sir o'tkazmoqda. Bu ta'sirlarning ijobiy tomonidan salbiy tomoni ko'proqdek. Ana shularning o'zi o'quvchi-yoshlarni kitobdan yiroqlashtirib yubormoqda.

Ammo buyuk adiblarimiz asarlari beradigan tarbiyaviy ahamiyatni kompyuterlar bera

onalaridan ibrat olib, ularning chizgan chiziqlaridan chiqmay, nasihatlariga quloq solishsa, jamiyatimizdagi turli noxush voqealarning oldi olingan bo'lardi.

-Bugungi kun yoshlarining kelajagi nimalarga bog'liq deb o'ylaysiz?

-Avvalo yoshlarning kelgusi hayotda oyoqqa turib olishida maktab, ustozlar va jamiyat katta ahamiyatga ega. Maktab sajdagoh singari muqaddas dargoh. Bu yerda otadan ulug', onadan ulug', mehribon ustozlar sidqidildan mehnat qiladilar. Maktab ustoz va shogird o'rtasida samimiy, beg'ubor, izzat-hurmat hukm surib turgan go'shadir. Maktabning sha'ni, uning ravnaq topib gullab-yashnashi o'qituvchi va o'quvchi munosabatlariga borib taqaladi. Har bir o'qituvchi avlodlar, demakki, kelajak tarbiyachisidir. Ustoz shogirdlari qalbida ona vatanga, el-yurtga, odamlarga mehr-muruvvat urug'ini sichuvchi bobodehqon, murg'ak navnihollarni parvarish qiluvchi bog'bon, bolalarning yuksak fazilatli insonlar qilib tarbiyalovchi ziyokordir. Kelajak avlodning baxtli kunlariga albatta ustozlarning mehnatlari katta sabab bo'la oladi.

-Qimmatli vaqtingizni ayamay tahririyatga tashrif buyurganingiz, qolaversa, maroqli suhbatingiz uchun Sizga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Suhbatdosh: Gulyuz BAHODIR qizi.



ularning ota-onalari, hozirda maktabda dars berayotgan ustozlar va maktab ma'muriyati qatnashdilar. Maktab direktori Ivanova Margarita Aleksandrovna kechani ochib, biz - sobiq o'quvchilarni qutladilar. Ancha yillar davomida bir-birimizni ko'rmagan sinfdoshlarimiz bilan o'zgacha kayfiyatda ko'rishdik. Mana shu sobiq o'quvchilar bosib o'tgan yo'li, ularning hayotdagi o'rni, jamiyatimiz uchun sidqidildan qilgan xizmati haqida uchrashuvni olib boruvchilar batafsil tanishtirdilar. Sobiq o'quvchilar, ya'ni sinfdoshlarim esa 50 yil avvalgi o'quvchilik damlarini yodga olib, o'sha vaqtdagi qiziqarli voqealar haqida gapirdilar.

-50 yil katta muddat, yarim asr desak adashmaymiz. Ana shu vaqt mobaynida maktabingiz va

qurilgan, maktab kengaygan, sharoitlar yaxshi. Maktabdagi tartib-intizom, o'quvchilarning shahar, tuman, respublika olimpiadalarida qatnashib g'olib bo'layotganliklari bizni juda quvontirdi.

Biz o'qigan vaqtda o'quvchilar maktabga o'tin ko'tarib kelishar, xonalarni pechkada o'tin yoqib isitar edik. U paytlar urushdan keyingi og'ir yillar bo'lgani uchun o'qituvchilarning hammasi ham oliy ma'lumotli emas edilar. Bir necha oy ichida o'qituvchilik kasbini o'rganib, majbur bo'lib dars bergan ustozlarimizni haligacha yodimizdan chiqarmaymiz. Ularning bir jihati ustuvor ediki, ular samimiy, qalbi toza, mehribon insonlar edilar. Ulardan ta'lim olgan o'quvchilar har jihatdan to'kis va barkamol insonlar bo'lib yetishishdi.

Sinfdozlarnim ham yillar o'tib ancha o'zgaragan. Maktabni bitirib, turli tomonga «uchirma» bo'lgan sinfdoshlar bir-birimizni

JAJJILARNING QALBLARIDA YASHAYSAN



Bolalik qayga ketdi, qani u, qayerlarda, Yulduzga aylangandir, balki u porloq quyosh. Balki oqqush misoli uchib ketdi samoga, Balki to'lin oy bo'lib bulutlarga qo'yar bosh. Bir laha to'xta dedim, quloq solmay ketdi u, Ming urindim namoqqa, ortidan yetolmadim. Har bir o'tgan kunlarim hazon misol to'kildi, U ko'milgan qalbinim yonidan ketolmadim. Mayli oqqush misoli uchib yurgin samoda, Bolaligim, sen bebosh shamollarga o'xshaysan. Bilaman, sen o'lmaysan, shaloladek jo'shqinsan, Jajji qiz va o'g'illar qalblarida yashaysan.

Kamola EGAMBERDIYEVA, poytaxtdagi 249 - maktabning II - «B» sinf o'quvchisi.

YO'L QOIDASI - UMR FOYDASI

Mana, «Yo'l harakati xavfsizligi oyligi» ham nihoyasiga yetdi. Respublika miqyosida o'tkazilgan bu tadbirda asosan bolalar bog'chalari, maktablar va barcha ta'lim muassasalari faol ishtirok etishdi.


Bizning maktabimizda ham yo'l harakati xavfsizligiga oid tadbirlar va ochiq dars mashg'ulotlari bo'lib o'tdi. Unda biz ko'plab yo'l harakati qoidalarini o'rgandik, belgilari va ularning mazmuni bilan yaqindan tanishdik. Ularga doir she'r va hikoyalar aytib, rasmlar chizdik. Avvallari mashinalar serqatnov yo'llardan qanday o'tishni bilolmay, shoshib qolardim. Endi esa hammasini bilib oldim.

Tunov kuni maktabga ketayotib, piyodalar o'tish joyida yashil chiroq yonishini kutib turgandim. Yonimda bir ayol men tenggi qizining qo'lidan tutib turardi. Yashil chiroq yonib ulgurmay haligi ayol, yuraqol qizim, mashinalar yetib kelguncha ulguramiz, deya yugurgancha yo'ldan o'ta boshladi. Men ularning harakatini kuzatib turib, o'ylanib qoldim. Ona qiziga yo'ldan qanday o'tishni tushuntirish



o'rniga toqatsizlikka, shoshma-shosharlikka o'rgatyapti. Kelasi safar bir o'zi yo'ldan o'tayotganida qizcha ham xuddi shunday qilishi tayin.

Istardimki, nafaqat biz bolalar, balki kattalar ham yo'l harakati xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilishsa. Haydovchi amaki va xolalarimiz mahallalarda, maktab va bog'chalar atrofida tezlikni oshirmasalar. Shundagina baxtsiz hodisalarning oldini olgan bo'lardik.



Kamola ALIQULOVA,

Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 241 - maktabning 6 - «A» sinf o'quvchisi.

Tadbir

Aziz bolajonlar, xabaringiz bor, mana uch yildirki, Respublika ijodkor-ixtirochi bolalar anjumani o'tkazib kelinyapti.

O'quvchi-yoshlarning texnikaga oid bilimlarini mustahkamlash, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, iqtidorli bolalarni izlab topish, ular bilan ish olib borish, texnik markazlar ilg'or tajribalarini ommalashtirish maqsadida tashkillashtirilgan mazkur anjuman juda maroqli o'tdi. Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va 12 ta viloyatdan kelgan jami 70 nafar iqtidorli o'quvchilar qatnashib, tanlovning «Elektronika», «Kimyo, neft va gaz sanoati», «Sanoat va agrosanoat», «Transport va harbiy texnika», «Tabiatni muhofaza qilish» kabi besh yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan test



sinovlaridan o'tdilar. G'oliblarni aniqlashda eksponatlarni tayyorlash savodxonligi, ishning sifati va qo'llanish darajasi, texnik ko'rinishi va badiiy bezagi, g'oyaning yangiligi va zamon talabiga mosligi, g'oya muallifining o'z fikrini asosli bayon etish mahorati kabilarga alohida e'tibor qaratildi.

Anjuman o'tkazilayotgan zalni

tomosha qilarkanmiz, u yerga qo'yilgan ayrim eksponatlar kishi aqlini shoshirib qo'yadi. Ulardagi murakkablik, mukammallikni ko'rib, bolalarning qo'li bilan tayyorlanganiga ishongisi ham kelmaydi odamning. Lekin eksponat mualliflari bilan ikki og'iz suhbatlashsangiz, ularning teran, asosli fikr-mushohadalariga quloq tutsangiz, ko'nglingizdagi ishonsizlikdan asar ham qolmaydi:

-O'zingizga ma'lum, Qoraqalpog'istonda sho'r suvlar juda ko'p, -deydi

«Tabiatni muhofaza qilish» yo'nalishi bo'yicha 1-o'rin sohibi bo'lgan qoraqalpog'istonlik tengdoshingiz Tursunboy

Yusupov. -Men ustozim Tagay Jo'rayev boshchiligida ana shu suvlarni filtrdan o'tkazib, ichimlik uchun yaroqli holga keltiradigan moslama yaratishga harakat qildim. Ishim tengdoshlarimga ham, hay'at a'zolariga ham ma'qul bo'ldi va 1-o'ringa loyiq topishdi. Bu anjumanda ilk bor qatnashdim. Poytaxtdan bir olam taassurotlar bilan qaytyapman...

-Men o'z ixtiromni «Ilhomshans - 2005» deb nomladim, -deydi **«Kimyo, neft va gaz sanoati» yo'nalishi bo'yicha 1-o'rin sohibi bo'lgan Buxoro viloyati, Vobkent shahridagi 9-maktabning 10-sinf o'quvchisi Ilhom Rahmatov.** - «Ilhom» mening ismim, «shans» imkoniyat, ya'ni mening imkoniyatlarim degan ma'noni anglatadi. Kimyo - eng sevimli fanim. Ustozim Ohista opa Isayevadan olgan saboqlarim asosida gazni qayta ishlash moslamasini yaratdim. Zavodlardan buruqsib ko'kka bo'yayotgan tutunni hammangiz ko'rgansiz-a? U juda zaharli bo'lib,

ekologiyamizga jiddiy ziyon yetkazadi. Men ana shu tutunlarni qayta ishlab, ulardan tok oluvchi va zavod ehtiyojlarini qondiruvchi moslama yaratdim. Moslamam 1-o'ringa loyiq topilganidan behad xursandman.

O'tgan yili ham ushbu anjumanda qatnashib, 3-o'rin sohibi bo'lgandim. O'shanda ishimni yanada

mukammallashtirib, o'zimdagi

hayajonni yengishga va kelasi yili albatta g'olib bo'lishga ahd qilgandim. Bu yil zalga qo'yilgan eksponatlar soni ancha ortibdi. Raqobat ham shunga yarasha bo'ldi. Shunday bo'lsa-da, g'olib bo'ldim... -Men iflos suvlarni tozalovchi moslama yaratgandim, -deydi **Buxoro viloyati, Buxoro shahridagi 3-maktabning 6-sinf o'quvchisi Xurshid Xudiyev.** -Yaratgan moslamam yangilik emas ekan. Shuning uchun ham o'rin ololmadim. Shunday bo'lsa-da, xafa emasman. Anjumanda qatnashib, ko'p



narsalarni o'rgandim, yangi do'stlar orttirdim. Muhimi - xato va kamchiliklarimni anglab yetdim. Ular ustida puxta ishlab, kelgusi anjumanda albatta g'olib bo'lishga harakat qilaman...

-Bu yilgi anjumanimiz «26 aprel - intellektual mulkni himoya qilish kuni»ga bag'ishlab o'tkazildi, -dedi biz bilan suhbatda **ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Xadicha Zokirova.** -U iqtidorli o'quvchilarning ko'pligi, ishlarining yanada mukammallashtirish, zamon talabiga javob bera oladigan darajada ekanligi bilan avvalgilaridan ancha farq qildi. G'oliblarni aniqlashda Toshkent Davlat Axborot texnologiyasi instituti hamda Davlat Patent idorasi mutaxassislari ko'magiga tayanamiz. «Bolalardan ba'zan hatto biz kattalarning xayoliga ham kelmaydigan yangiliklar, ixtirolar kutish mumkin», deb hisoblashadi ular. G'olib o'quvchilarning ishlari dunyo miqyosida shunday ixtiro bor-yo'qligi aniqlangandan keyingina ixtiro deb topiladi va muallifning shaxsiy mulkiga aylanib, unga patent beriladi. Ixtirochi imkoni bo'lsa uni hayotga tadbiiq etadi, istasa sotadi, bu uning xohishi...

Anjumandan bir olam taassurotlar bilan qaytarkanmiz, nigohlari o'ktam, odimlari shahdam, yangilik sari intiluvchan, ixtirochi bolajonlarning ko'pligidan dilimiz faxr va iftixor tuyg'ulariga to'ldi.

Feruza JALILOVA reportaji.

«Maktab mebellari, zamonaviy o'quv laboratoriya asbob-uskunolari, sport anjomlari va kompyuter texnikasi bilan jihozlash» ko'rgazmasiga oid taklifnomani oldim-u, O'zbekspomarkazga yo'l oldim. U yerdagi ko'rgazmali sinxonalar: probirkalar va kimyoviy elementlarga to'la kimyo, lingofon xonalari, qotirtirilgan hayvonlar bilan bezatilgan botanika xonasi, chilangarlik va duradgorlik ustaxonasi... havasimni keltirdi. Zamonaviy partalar-u doskalarni aytmayisizmi? Odam atlasini izohi bilan ifodalangan ko'rgazmali qurolni ko'rgan qizlar albatta shifokor bo'lishni niyat qilib qo'yadilar. Yoki kimyoviy, fizikaviy reaksiyalarni o'tkazishga ishtiyoqmand o'quvchi buyuk ixtirochiga aylanar. Mixdan tortib stanokkacha barcha ish

intilayotgan o'qituvchilar ham ko'rgazma bilan qiziqishyapti. Ular ham o'z navbatida chekka-chekka qishloq maktablarini ana shunday boy sinxonalar bilan jihozlanishi tarafdorlaridir.

tajribasiga ega Sayyora Sagdiyeva, 97-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Sanobar Musayeva va boshqalar yurtboshimizdagi samimiyat va jonkuyarlikni ko'rib, boy

umumta'lim maktablarini jihozlash uchun mebel, o'quv-laboratoriya asbob-uskunolari va kompyuter texnikasi bilan ta'minlash to'g'risida Davlat buyurtmasi ishlab chiqildi.

Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan 2005-2009-yillarda Davlat umum milliy Dasturiga kiritilgan jami 8476 ta maktablarni 592.3

ming komplekt o'quvchilar partasi, 65 ming dona sinf doskasi, 70,6 ming dona o'qituvchilar stoli, 90,8 ming dona o'qituvchilar stuli, 248 ming dona kitob javoni, 159,4 ming dona kiyim javoni, 25,2 ming

Ta'lim dasturi-amalda

ta tasviriy san'at va chizmachilik xonalari, 4377 ta ustaxonalarni zaruriy anjomlar hamda ko'rgazmali o'quv qurollari bilan jihozlash ko'zda tutilgan.

2005-yilda Dasturga binoan umumta'lim maktablarini jihozlash uchun 99915 komplekt o'quvchilar partasi, 7849 dona sinf doskasi, 7589 dona o'qituvchilar stoli, 21105 dona o'qituvchilar stuli, 21105 dona kitob javoni, 15364 dona kiyim javoni va 2017 ta boshqa maktab mebellari xarid qilish, shuningdek, 638 ta fizika, 388 ta kimyo va biologiya, 128 ta biologiya, 128 ta kimyo, 986 komplekt kompyuter sinfi, 693 ta lingofon kabinetini, 380 ta tasviriy san'at va chizmachilik xonalari va 181 ta ustaxonalarini jihozlash rejalashtirildi.

Yangicha tus olayotgan maktablarni, zamonaviy sinxonalarini ko'rgan odam qaytadan o'quvchi bo'lishni istaydi. Bunday yaxshi shart-sharoitda qat'iyat bilan bilim olgan o'quvchi yoshlarimiz kelajakda mukammal kasb egasi bo'lishi muqarrar. Faqatgina o'quv maskanlarini asrab-avaylab, yangi avlodga bus-butun qoldirsalar bas.


Muharrama PIRMATOVA.

MAKTABLARGA YANGI ANJOMLAR

Ko'rgazmaga qilgan tashrifida yurtboshimiz qator o'qituvchilar mutasaddilar bilan suhbatida sifatga e'tibor qaratish lozimligini uqtirdi. Haqiqatan ham «arzon tushadi», deb sport anjomlari ishlab

taassurotlar ila maktab ishlariga yanada g'ayrat bilan «sho'ng'ishmoqchi».

Xabaringiz bo'lsa, Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-iyuldagi «2004-2009-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umum milliy dasturini amalga oshirish chora-



chiqaraverilsa, yosh chempionlarimiz xorij davlatlarda umuman ko'rmagan zamonaviy jihozlarga duch kelsalar, albatta musobaqaga ta'siri bo'ladi-da. Prezident bilan bevosita suhbatda bo'lgan o'qituvchilardan Yunusobod tumani, 250-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi, 22 yillik ish

tadbirlari to'g'risida»gi 321-sohli qarori belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida, Xalq ta'limi vazirligi hamda Iqtisodiyot vazirligi hamkorligida 2005-yilda

boshqa maktab mebellari, shuningdek, 7804 ta fizika, 6095 ta kimyo va biologiya, 1299 ta biologiya va 1299 kimyo xonalari laboratoriyalarini, 8633 komplekt kompyuter sinflari, 6435 ta lingofon xonalari, 4560

E'zoz

Ustoz deganda ko'z oldimda o'ta jiddiy, bir so'zli, boqishlari ma'nodor insonlar namoyon bo'ladi. Bizning ustozimiz Sabohat opa ham o'ta jiddiy, ayni paytda juda mehribonlar. Biror savolimiz yoki muammomiz bo'lsa, charchab turgan

kecha tashkil qilganlar. 1997-yili respublika miqyosida o'tkazilgan «Yashil chiroq» musobaqasiga ham rahbarlik qilganlar. Ustozimizning jihozlagan geografiya xonasi tuman bo'yicha o'tkazilgan xonalar ko'rigida 1-o'rinni egalladi va tuman bo'yicha geografiya fanidan «tayanch maktabi» etib

BIZNING SINIF RAHBARIMIZ

bo'lsalar-da, darsdan keyin qolib, uni hal qilmaguncha tinchimaydilar. Har birimizdan bugungi darslardan ko'nglimiz to'lgan, to'lmaganini so'rab chiqadilar. O'quvchilar o'qituvchidan qo'rqishi emas, uni hurmat qilishi lozim, deb hisoblaydilar. Biz qalbingizda yaxshilik urug'ining nish urishi, to'g'riso'z, halol insonlar bo'lib kamo! topishingizni istaymiz, deyдилar doim. Men o'qitgan o'quvchilarim «Rahmat ustoz, mana sizning dakkilaringiz menga ancha foyda berdi. Yaxshiyam menga to'g'ri yo'l ko'rsatibsiz, deyishsa, barcha charchoqlarim unutilib ketadi.

Bizning Sabohat opamiz faqat A.Ikromov tumanidagina emas, balki shahar bo'yicha eng ijodkor, izlanuvchan o'qituvchilardan hisoblanadilar. Ular har xil elektrlashtirilgan ko'rgazmali vositalar va musiqali test savollari, elektrlashtirilgan monitoringlar muallifi hamdirlar. 1993-yil, 2002-yillarida maktab bo'yicha o'tkazilgan «Yil o'qituvchisi» ko'rik-tanlovida sovrinli o'rinni egallaganlar. 1999-yil A.Ikromov tumani ma'naviyat va marifat bo'yicha direktor muoviniari seminarida «Munisginam onam» mavzusida badiiy



tayinlandilar. Ustozimiz yasagan qo'llanmalar bilan chiroyli qilib jihozlangan geografiya xonamiz tuman miqyosida o'tkazilgan «fan xonalari» ko'rik-tanlovida 1-o'rinni egalladi.

Ha, sinf rahbarimiz Sabohat opa ana shunday shijoatli, g'ayratli insonlar. Bizga ularning biroz hazilkashliklari juda yoqadi. Axir, hadeb «o'qi, o'qi» deyaverishsa, bolalar ham zerikishadi-da. «O'ta qattiqqo'llik ham bolalarni qo'rqoq qilib qo'yadi, o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usini so'ndiradi»,- deyдилar ustoz.

Mehribon, bag'ri keng ustozimizga sog'liq-omonlik, ishlarida omdalar tilaymiz. Biz sizni juda-juda yaxshi ko'ramiz.

Lutfulla UBAYDULLAYEV,
Toshkentdagi 193-maktab,
8-«A» sinf o'quvchisi.

USTOZ OG'YO'L TILAYDI

Aziz bolajonlar!

Tengdoshingiz Anvar XOLDOROV - 1993-yil Navoiy viloyatining tog'li hududlaridan biri Nurotadagi Qizilolma qishlog'ida tug'ildi. Uning she'rlari ushbu tog'lar kabi beg'ubor, bolalikning nafis soddaliklarini, xuddi men kezzagan qishloq ko'chalarini eslatib turadi. Uning she'rlarida tabiatga, borliqqa bo'lgan mehr-muhabbat shunday sezilib turadi.

Siz aziz bolajonlarga Anvarning she'rlarini havola qilar ekanman, o'z xotiram bolaligimning bir lahza damlarini Anvarning she'rlari ila hadya etaman.

Komil ULUG',

O'ztelefilm bosh muharriri.

OLMA

DO'ST

Dardlaringni kimga aytasan,
Chin do'stingni qanday topasan?
So'zlaringdan nogoh qaytasan,
Sen do'st emas men uchun bilsang.

Olma shoxlarida oppoq gullari,
Mevalar yetilib to'lishib bordi.
Qip-qizil olmalar shoxda turgandi,
Qattiq shamol uni to'kib yubordi.

BALIQ

Vijdonsiz odamlar dunyoni buzar,
Inson odobi ila go'zal hamisha.
Do'stlik rishtalarin hiyonat uzar,
Sodiqlik ildizi mangu do'stlikning.

Suv tagida makoning,
Daryolarda suzasan.
Bormi u yerda koning,
Havf bo'lsa tez sezasan.

Quyosh chiqar osmonga,
Suv yuzida qanoting.
O'xshab ketar posbonga,
Qanotli baliq zoting.



Anvar XOLDOROV,
Alisher Navoiy nomli Nafis san'at litseyining 3-«A» sinf o'quvchisi.

Havas



SHOGIRD BO'LAMAN

Mening dadajonim ko'p yillar Toshkent aeroportida muhandis bo'lib ishlaganlar. Hozirda Navoiy shahar aeroportida muhandis-konstruktor bo'lib ishlaydilar. Bizga samolyotlar haqida juda ko'p narsalarni o'rgatadilar.

Shu bilan birga men shahrimizdagi madaniyat saroyi qoshidagi Shavkat Rasulov boshchilik qiladigan avia modelashtirish klubiga a'zoman. Klubimiz bir necha bor raketa modelashtirish bo'yicha respublika mukofotlarini olgan. Men kelajakda kosmonavt bo'lishni orzu qilaman. Buning uchun maktabda a'lo baholarga o'qish bilan birga shahrimizdagi «Delfin» sport havzasiga ham qatnashaman. Kosmonavtlar har tomonlama yetuk insonlar bo'lishi shart. Men ular haqida juda ko'p o'qiyman. Ayniqsa, o'zbek o'g'loni Solijon Sharipov hayotini o'rganib boraman. U kishi 1998-yilning yanvarida mustaqil O'zbekiston bayrog'ini «Mir orbital stansiyasi»da koinotga birinchi bo'lib olib chiqqanlar. Orbitada

yurtimizning taniqli xonandalari Yulduz Usmonova, Nasiba Abdullayevalar qo'shiqlari yangragan. Bu qo'shiqlarni ekipaj a'zolari ham miriqib tinglashgan. Solijon aka asli o'zbek, Qirg'iziston Respublikasi, O'sh viloyati, O'zgen shahrida ko'p bolali oilada tug'ilib o'sganlar. Yoshliklaridan samolyotlarga qiziqib, avia va sport to'garaklariga qatnashib, a'lo baholarga o'qiganlar. Ustozlari asli o'zbekistonlik kosmonavt general Vladimir Jonibekovdir. Rafiqalari Nasiba opa bilan Nigora va Jahongir ismli farzandlarini o'stirayaptilar.

Polkovnik Solijon Sharipov o'n yildan buyon Parkent tumanidagi aerokosmik maktabda akademik Shavkat Vohidov bilan o'qituvchilik qilayaptilar. Solijon aka chaqirilish kodini o'zi tug'ilib o'sgan tog'lari sha'niga Tyan-Shan deb nomlagan. Men ulg'ayib voyaga yetsam, Solijon akaga shogird bo'laman va o'zinning chaqirilish kodimni Qizilqum deb nomlayman.

Kuni kecha Solijon Sharipov ekspeditsiyalarini tugatib, samodan yerga eson-omon qaytib keldilar. U kishining yutug'i, baxti bizlarning ham yutug'imiz va baxtimizdir. Men o'zbekistonlik bolalar nomidan Solijon Sharipovga sog'liq, omad va baxt tilayman. Zaminimiz va osmonimiz hamisha tinch bo'lsin!

Temur SHAFIKOV,
Navoiy shahridagi 1-maktabning
5-«B» sinf o'quvchisi.



Assalomu alaykum o'zbekistonlik qarddon do'stlarim! Men sizlarning yurtigingizga juda ham qiziqaman. Tomirimda o'zbekning qoni oqqani uchun O'zbekistonga mehrim o'zgacha-da. Oyijonim menga

DO'STLIKDAN QUDRATLI KUCH YO'Q

«O'zbekiston» kitobini sovg'a qilganlar. Bu kitobdan O'zbekiston va o'zbekistonliklar haqida juda ham ko'p ma'lumotlarni o'rganayapman. Yurtigingiz judayam go'zal va betakroridir. Men kelajakda uchuvchi bo'lishni niyat qilganman. Agar uchuvchi bo'lsam, Minsk-Toshkent samolyotida ishlab, do'stlik rishtalarimizni yana ham qattiqroq bog'lashga intilardim. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent kabi go'zal shaharlarning ko'chalarini o'z ko'zim bilan ko'rmoqchiman. Sizlarni ham Belarus Respublikasiga mehmonga taklif qilaman. Do'stlikdan qudratli kuch yo'q.

Menga maktub yozinglar. Xatlaringizni intizor kutaman.

Grin ARTYOM,
Belorus Respublikasi,
Mogilyov viloyati,
Bobruysk shahridagi
105-maktabning
7-«A» sinf o'quvchisi.



O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
022- raqam bilan
2003 yil 11 dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir
«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta
«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 40132
Buyurtma N: J 1237

Dizayner va sahifalovchi:
**Otabek
ESHCHANOV.**
Navbatchi:
**Ozoda
TURSUNBOYEVA.**

Rassom:
Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38
144-38-10
144-63-08
Tel./ faks:
(99871) 144-24-45